

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



PROTOZOLOGIYA

O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 5 00000 – Tabiiy fanlar, matematika, statistika
Ta'lim sohasi: 5 10000 - Biologik va turdosh fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60510100 – Biologiya (turlari bo'yicha).

| | | | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|--------------------------------------------|----------------------------------|-------------------------------------|
| Fan/modul kodi PZLB 404 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 4 | Kreditlar 4 |
| Fan/modul turi Tanlov fan | | Ta'lif tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 2 |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lif (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Protozoobiologiya | 20 | 100 | 120 |
| <p>I. O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni</p> <p>Ushbu dastur "Protozoobiologiya" fani predmeti, maqsadi va vazifalari, ilmiy asoslari, rivojlanish tarixi, asosiy bo'limlari; boshqa fanlar bilan bog'liqligi; fanning hayvonot olami biologik xilma-xilligini saqlashdagi ahamiyati, halq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tibbiyot muammolarini yechishdagi o'rni; fan bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari; protozoobiologiyaning biolog mutaxassis tayyorlashdagi o'rni kabi masalalarni qamraydi.</p> <p>II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga bir hujayrali hayvonlarning morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, filogenezi va sistematikasi; bir hujayrali hayvonlarning xilma-xilligi; ularning ko'payish usullari; o'sishi va rivojlanishini turli tumanligi; ularni morfologik, anatomik, fiziologik va ekologik muammolari bo'yicha ta'lif berishdir. Buning uchun quyidagi vazifalar bajariladi: talabalarni protozoobiologiyaning asosiy vazifalari va qonunlari; bir hujayrali hayvonlarning morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, etologiyasi, filogenezi va sistematikasi; bir hujayrali hayvonlarning xilma-xilligi; ularning ko'payish usullari; o'sishi va rivojlanishini turli tumanligi; ularni morfologik, anatomik, fiziologik va ekologik muammolar kabilar bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tanishtiriladi.</p> <p>Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga kuydag'i talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <p>Protozoobiologiya fanining predmeti va tarixi; maqsadi va vazifalari; fanning tadqiqot uslublari; hayvonot olami xilma-xilligi; bir xujayralilar; ularning kelib chiqishi, ko'p hujayrali hayvonlarning kelib chiqish nazariyalaridagi ahamiyati</p> | | | | |

to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

- morfologik, anatomik, fiziologik va ekologik aspektlari; bir hujayrali hayvonlar klassifikatsiyasi; muhim vakillari va ularning ahamiyati; bir hujayrali hayvonlarning ko‘payish usullari; o‘sishi va rivojlanishi fanning xalq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot muammolarini hal qilishda tutgan o‘rnini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- hayvonlarni aniqlash, o‘rganish va kuzatuvlar olib borishda kerakli asbob- uskunalaridan foydalananish; turli xil bir hujayrali hayvonlarni yig‘ish, kuzatish, ichki va tashqi tuzilishini o‘rganish; ulardan oqilona foydalana olish; hayvonot olami vakillarini turgacha aniqlash haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-mavzu. Protozoologiya faniga kirish. Eukariot hujayralarning tuzilishi. Euglenozoa tipi.

Protozoologiya fanining obyektlari va predmeti. Fanning maqsad va vazifalari. Fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o‘mi. Fanning rivojlanishidagi asosiy bosqichlar va uning shakllanishiga katta hissa qo‘sghan olimlar. Umurtqasizlar filogeniyasi tiklanishi. Kladistik usul. Linney kategoriyalari.

Hujayralar harakatchanligi. Hujayralar tomonidan moddalarning singdirilishi. Hujayralar ichida ovqat hazm qilinishi. Hujayralarda sitoplazmaning aylanishi (sirkulyatsiyasi). Hujayralar tomonidan chiqariladigan (sekretsiya qilinadigan) moddalar. Hujayralar kommunikatsiyasi. Hujayralar simbiozi. Eukariot hujayralarning kelib chiqishi

Eng oddiy. (sodda) hujayralar xilma-xilligi. Ularning rivojlanishida jinsiy va jinssiz nasllar gallanishi. Tinch holati va tarqalish davrlari (sistalar va sporalar). Sodda hayvonlar xilma-xilligi.

Euglenozoa tipi. Euglenoidea sinfi. Vakillari tuzilishida hayvon va o’simliklarga xos umumiylik. Kinetoplastida sinfi. Umumiyl tuzilishi, rivojlanishi, klassifikatsiyasi va patogen vakillari.

2-mavzu. Chlorophyta, Choanoflagellata, Retortamonada va Axostylata tiplari. Alveolata tipi. Parazit infuzoriyalar. Yoqali xivchinlilar Chlorophyta tipi (Choanoflagellata), Retortamonada va Axostylata tiplari.

Alveolata tipi. Dinoflagellata kenja tipi: umumiy belgilari; vakillari ahamiyati. Kiprikilar (Ciliophora) kenja tipi: hujayra tuzilishi va funksiyalari; lokomotsiya; oziqlanishi; ekskretsiya; yadroviy dimorfizm; jinssiz va jinsiy ko'payishi; vakillarining xilma-xilligi. Erkin yashovchi infuzoriyalar.

Parazit-infuzoriyalar: Ularning tuzilishi, ko'payishi, rivojlanishi va tarqalishi, Asosiy vakillari va ularning ahmiyati.

3-mavzu. Sporalilar Apicomplexa-Sporozoa. kenja tipi. Toksoplasmalar va sarkosporidiyalar. Qon sporalilari. Piroplazmidalar kenja turkumi.

Toksoplasmalar va **sarkosporidiyalar** (go'sht sporalilari). Tuzilishi va ahmiyati.

Qon sporalilari. Bezgak (malyariya) kasalligining qo'zg'atuychilari, tuzilishi, rivojlanish sikllari.

Piroplazmidalar kenja turkumi. Babezidlar oilasi. Teyleriylar oilasi. Piroplazmidalar oilasi.

4-mavzu. Miksospriodiyalar yoki knidosporidiyalar tipi. Mikrosporidiyalar tipi. Umumiy tasvifi. Miksospriodiyalar (Shilimshiq sporalilar) sinfi. Aktinomiksidiyalar yoki aktinosporalilar sinfi. Vakillarining tuzilishidagi belgilar.

Mikrosporidiyalar tipi. Tuzilishi, mikrosporidiyalarning rivojlanish sikllari va tarqalishi. Asosiy vakillari. Ularning ahmiyati.

5-mavzu: Amyobasimon bir hujayralilar. Radiolaria, Heliozoa, Acantharea sinflari. Bir hujayrali hayvonlarning filogeniyasi. Amyobasimon hujayra tuzilishi va uning xillari. Yolotonoyoqlar - tuzilishi, vazifasi, oziqlanish va ko'payishi. Amyobalarni xilma-xilligi. Kasallik qo'zg'atuvchi amyobalar. Foraminiferalar va aktinopodalar.

Radiolaria, Heliozoa, Acantharea sinflari. Tuzilishi. ularning o'ziga xos belgilari, vakillari.

Bir hujayrali hayvonlarning filogeniyasi. Prokariot hujayralar evolyutsiyasi. Evolyutsiya jarayonida organoidlarning shakllanishi.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Protozoologiya fanining obyektlari va predmeti. Bir hujayrali organizmlarning tuzilishi va funksiyalari. Euglenozoa tipi. Euglenoidea sinfi. Euglena viridis yoki Euglena gracilis tuzilishi. Kinetoplastida sinfi. Hayvonsimon xivchinlilar: tripanosoma, leyshmaniya, trikomonada, lyambliyalarning tuzilishi.
2. Chlorophyta tipi, volvokslar. Koloniya bo'lib yashovchi xivchinlilar. Yoqali xivchinlilar (bodo)ning tuzilishi. Kipriklilar (Ciliophora) kenja tipi. Erkin yashovchi infuzoriyalar: Paramecium caudatumning tuzilishi. Parazit infuzoriyalar. Balantidium, ixtiosirus va boshqa vakillarning tuzilishi.
3. Sporalilar-Apicomplexa-Sporozoa. kenja tipi: Gregarinalar tuzilishi va rivojlanishi. Koksidiyalar: eymeriya, toksoplazma, sarkosporidiyalarning tuzilishi. Qon sporalilari. Bezzak qo'zg'atuvchilarining, tuzilishi, rivojlanish sikllari. Piroploplazmidalar kenja turkumi. Teyleriyalar va piroplazmidalar oilalari vakillarining tuzilishi.
4. Miksosprodiyalar yoki knidosporidiyalar tipi. Vakillarining tuzilishi. Mikrosporidiyalar tipi. Vakillarining tuzilishi.
5. Amyobasimon bir hujayralilar. Ildiz oyoqlilar: amyoba, arsellla, difflyugiya. Foraminiferalar va aktinopodalarning tuzilishi. Radiolyariyalar. Heliozoalar. O'ziga xos belgilari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhiga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Protozoologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. O'zbekistonda protozoologik tadqiqotlar tarixi
3. Bir hujayralilarning xarakterli belgilari
4. Bir hujayralilarning yashash muhiti
5. Sodda hayvonlarning tinch holati va tarqalish davrlari (sistalar va sporalar)

6. Euglenozoa tipining xarakterli xususiyatlari
7. Retortamonada va Axostylata tiplarining ehg asosiy vakillari
8. Xivhinlilarning anatomik, morfologik, fiziologik tavsisi
9. Alveolata tipi tipi klassifikatsiyasi
10. Alveolata tipi i vakillarining tuzilishi, ko'payishi; tarqalishi
11. Infuzoriyalarda parazitizmga moslashish belgilari
12. Parazit infuzoriyalarning xilma-xilligi
13. Sporalilarning anatomik, morfologik, fiziologik tavsifi
14. Sporalilarning xilma-xilligi
15. Piroplazmidalar kenja turkumi xilma-xilligi
16. Miksosporidiyalarning tuzilishi, ko'payishi, rivojlanish sikllari va tarqalishi
17. Mikrosporidiyalarning tuzilishi, ko'payishi, rivojlanish sikllari va tarqalish
18. Amyobalarning tuzilishi va ko'payishi
19. Foraminiferalarning ahamiyati, tuzilishi, ko'payishi va rivojlanishi
20. Radiolaria sinfi vakillarining xilma-xilligi
21. Ildiz oyoqlilarning sistematik holati
22. Quyoshsimonlar xilma-xilligi
23. Bir hujayrali hayvonlarning filogeniyasi haqida evolyutsion qarashlar

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, slaydlar-tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsija etiladi.


VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

3 Talaba bilishi kerak:

- bir hujayrali organizmlar biologiyasiga oid asosiy nazariy bilimlarga ega bo'lishi;
- bir hujayrali organizmlarni ajratish, ularning turlarini aniqlash haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- bir hujayrali organizmlami tarqalish sabablari hamda kasallik keltiruvchi turlariga qarshi kurash choralariga oid ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak (malaka)

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar;
- Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar)
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlami qilish;
- individual loyihibar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibar.

| | |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 5 | <p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p> |
| 6 | <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. C.P.Hickman, L.S.Roberts, S.L.Keen, A.Larson, H.Ianson, D.J. Eisen- hour Zoology, 14 edition, 2008, McGraw-Hill, USA, 922 p. 2. B. Xoliqnazarov Zoologiya (umutrqasiz hayvonlar) Toshkent, Diman. 2024, 817 b. 3. Догель В.А. Зоология беспозвоночных. - Москва. 1981. 4. Мавлянов О.М., Хуррамов Ш.Х., Эшова Х.С. Умурткасизлар зоологияси. Ташкент, OFSET PRINT, 2006. 550 б. 5. Дадаев С.Д. Паразитология. -Ташкент. 2006. 6. Хаусман К. Протозоология. 1988. 7. Дадаев С., Абдурахмонова Г. Умумий паразитология. - Ташкент. 2013. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Рупперт Э.Э., Фокс Р.С., Барнс Р.Д. Зоология беспозвоночных. В 4-х томах, перевод с англ., "Академия", Москва. - 2008 г. 8. Эшова Х.С., Мавлонов О.М. Умурткасизлар зоологияси. -Ташкент, 2006. 9. Ченцов Ю. С. Общая цитология. -Москва. 1984. 10. Мўминов Б., Эшова Х., Раҳимов М. Умурткасизлар зоологиясидан амалий машғулотлар. -Ташкент, 2005. 11. Хуррамов А. Умурткасизлар зоологиясидан лаборатория машғулотлари. "Сурхон - Нашр", -Термиз. 2018. <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 12. www.ziyo.net.uz 13. http://zoohistory.ru 14. www.natlib.uz 15. http://www.ebio.ru 16. http://nuu.uz 17. http://www.seaworld.org/animal 18. http://www.zin.ru |
| 7 | Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. |
| 8 | <p>Fan / modul uchun mas'ul:</p> <p>B.A.Raxmatullayev  TerDU "Zoologiya" kafedrasи mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p> <p>E.A.Saidova -  TerDU "Zoologiya" kafedrasи o'qituvchisi</p> |
| 9 | <p>Taqrizchilar:</p> <p>K.A. Saparov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti dekani, biologiya fanlari doktori, professor</p> <p>S.B.Narzullayev – Samarqand davlat universiteti "Zoologiya" kafedrasи assistenti, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p> |